

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Sh.T.Axmadjonova</b>	
Interpretation of the study of speech styles in uzbek linguistics .....	983
<b>Sh.T.Axmadjonova</b>	
A study on the characteristics and types of public speaking in english .....	986
<b>Sh.Sh.Dadabayeva</b>	
Expression of comparative relation in language .....	990
<b>N.X.Alieva</b>	
Evolution of new phraseological units in the era of digitization .....	997
<b>I.M.Jo'rayev</b>	
Jadid adabiyotida oila va jamiyat taqdiri masalasi .....	1001
<b>O.Q.Xasanova</b>	
Til o'rganuvchilarning xatolarini to'g'rashda o'yinlardan foydalanishning didaktik ahamiyati .....	1005
<b>И.Ф.Порубай</b>	
Рассмотрение языка сферы автоспорта как профессионального языка .....	1010
<b>D.Sh.Rasulova, N.R.Gafurova</b>	
Gender study of forms of references in english languages .....	1019
<b>N.R.Gafurova, O'.I.Xomidova</b>	
Linguistic and cultural analysis of lexemes expressing tradition in english and uzbek languages .....	1023
<b>I.M.Qo'chqarov</b>	
Methods of teaching english .....	1028
<b>N.Z.Axmadjonov</b>	
Nemis tili biznes nutqiy aktida kechirim so'rashning semiotik xususiyatlari (Elektron xatlar misolida) .....	1031
<b>Z.M.Xalilova</b>	
Tilshunoslikda "Oila/Family" konseptining o'rganilishi .....	1036
<b>G.R.Tashmatova</b>	
Роль интеграции предметного содержания и иностранного языка в формировании иноязычной коммуникативной компетенции студентов высших учебных заведений .....	1040
<b>Sh.A.Nuraliyeva</b>	
Navoiyshunoslik taraqqiyotida Oybek ijodining o'mi .....	1044
<b>Z.M.Abdullayev</b>	
Antroponimlarning egalik shakllari bilan qo'llanilishining etnolingvistik xususiyatlari (O'zbek va Nemis tillari antroponimlari misolida) .....	1047
<b>N.Z.Axmadjonov</b>	
Nutq aktlari va ularning klassifikatsiyasi .....	1050
<b>D.X.Madazizova</b>	
Badiiy va turistik-reklama diskursida kontaminatsiya imkoniyatlari .....	1055
<b>R.U.Axrorova</b>	
«Yosh» tushunchasining lingvistik talqini .....	1059
<b>R.U.Axrorova, L.B.Ikromova</b>	
Adabiy asarlarda maqollarning o'mi .....	1064
<b>A.Mamatova</b>	
Nemis tilida frazemalarning turli ma'noda qo'llanilishi .....	1069
<b>A.Mamatova</b>	
Nemis tilida frazemalarning milliy-madaniy xususiyatlarining nutqiy tasnifi .....	1074
<b>Sh.O.Abdiloyev</b>	
Nemis va tojik tillarida frazeologik birliklarni tasniflash masalasi haqida .....	1078
<b>N.Q.Adamboeva</b>	
Xushmuomalalik kategoriyasini aksiolingvistik jihatdan tasniflash nazariyasi .....	1083
<b>T.Z.Mingboyeva</b>	
The effects of societal expectations on character development in Jack London's novels .....	1087
<b>D.R.Ubaydullayeva, F.S.Abduvaliyeva</b>	
Omma oldida nutq qilishdag'i qo'rquv sabablari va yechimlari .....	1091
<b>R.A.Ortiqov</b>	
Роль и значение компьютерных игр в образовании .....	1095



**ADABIY ASARLARDA MAQOLLARNING O'RNI**  
**РОЛЬ ПОСЛОВИЦ В ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ**  
**THE ROLE OF PROVERBS IN LITERARY WORKS**

Axrorova Ruzixon Usmanovna<sup>1</sup> 

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent  
ORCID ID: 0000-0001-5071-101X

Ikromova Lola Boltayevna<sup>2</sup> 

<sup>2</sup>Buxoro davlat universiteti, o'qituvchi

**Anotatsiya**

*Ushbu maqolada, xalq og'zaki ijodi namunasi hisoblangan maqollarga murojaat qilinadi. Asarlarda kelgan maqollarning ma'no va mazmuni ochib berish jarayonida, asar qahramonlarining ham ba'zi xarakterlarini ham ifodalaydi. Bu maqolada qadimiy va yangi davrlar asarlarida kelgan maqollar bilan tanishamiz. Shu bilan birgalikda, xalq og'zaki ijodi asarlardagi qahramonlar haqida tushunchamizni shakllantirish bilan bir qatorda ularning salbiy va ijobili obrazlarini nomoyon qiladi. Shuningdek, Turkiy adabiyotning nodir namunasi hisoblangan „Devonu lug'otit turk“, „Qutadg'u-bilik“ forsiy tilda yozilgan „Zarbulsasal“ va yana bir necha asarlardan namunalar keltiriladi. Bundan tashqari yana bir necha hikoyalarga murojaat qilinadi. Maqolani yozishdan asosiy maqsad, asarlarda kelgan maqolalarni izlab topish va ularning ma'nosini ochib berishdan iboratdir.*

**Аннотация**

*В данной статье речь идет о пословицах, которые являются образцами фольклора. В процессе раскрытия смысла и содержания пословиц в произведениях они выражают и некоторые характеристики героев произведения. В этой статье мы познакомимся с пословицами из произведений древности и современности. При этом народное искусство не только формирует представления о героях произведений, но и показывает их отрицательные и положительные образы. Также представлены «Девону Луготит Турк», «Кутадгу-билиг», «Зарбулмасал» и ряд других произведений, написанных на персидском языке, которые являются редкими образцами турецкой литературы. Кроме того, упоминается еще несколько историй. Основная цель написания статьи – найти статьи в произведениях и раскрыть их смысл.*

**Abstract**

*This article refers to proverbs that are examples of folklore. In the process of revealing the meaning and content of the proverbs in the works, they also express some of the characters of the heroes of the work. In this article, we will get acquainted with proverbs from works of ancient and modern times. At the same time, folk art not only forms concepts about the characters in the works, but also shows their negative and positive images. Also presented are "Devonu Lugotit Turk", "Kutadgu-bilik", "Zarbulsasal" and a number of other works written in Persian, which are rare examples of Turkish literature. In addition, several other stories are mentioned. The main purpose of writing an article is to find articles in works and reveal their meaning.*

**Kalit so'zlar:** "Divanu lug'atit turk", "Qutadg'u-bilik", "Zarbulsasal" maqollar, roman, qahramonlar, asar syujeti, doston, ertaklar.

**Ключевые слова:** «Дивану лугатит турк», «Кутадгу-билиг», «Зарбулмасал» пословицы, повести, персонажи, сюжет произведения, былины, сказки.

**Key words:** "Devonu lugatit turk", "Qutadgu-bilik", "Zarbulsasal" proverbs, novels, characters, the plot of the work, epics, fairy tales.

**KIRISH**

Bizga ma'lumki, xalq og'zaki ijodi hisoblangan maqollar qadimdan hozirgacha yashab kelmoqda. Bu asosan xalq tomonidan yaratilgan bo'lib, o'gizdan-og'izga o'tib bizgacha etib kelgan. Ayni chog'da maqollar tilda aks ettirilish bilan bir qatorda badiiy asarlar, hikoyalar, ertaklarda ham nomoyon bo'ladi. Maqollarda so'z qimmati alohida yorqin ifodalanadi. Chunki maqollardagi so'zlami boshqasi bilan almashtirish, biron so'z qo'shish mumkin emas. Ular milliy til tarkibida qoliplashgan

## TILSHUNOSLIK

holda namoyon bo'ladi. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida bor bo'lib, hajm, shakl, yaratilishi maqsadiga ko'ra mushtarak hisoblanadi.[ 1] Masalan kimgadir maslahat berishda, yoki tanbeh berishda ham juda keng qo'llaymiz.

Maqollar deb ataladigan hikmatli so'zlar kundalik tilimiz va madaniy o'ziga xosligimizning ajralmas qismi bo'lib, suhbatlar, hikoyalari va hatto ommabop ommaviy axborot vositalarida o'z o'rnni egallaydi. Maqollar va ularning ma'nolarini tushunish orqali biz muallif tomonidan taqdim etilgan mavzular va xabarlar haqida qimmatli tushunchaga ega bo'lishimiz mumkin.

Ushbu maqolada biz ularning boy tarixiga murojaat qilamiz, ularning ko'p shakllarini abdibiyotlarda qo'llanganini ko'rib chiqamiz va ular etkazadigan donolikni ochib beramiz. Biz maqollar olamiga kiramiz, bu erda asriy maqollar bugungi kunda ham bizni o'ziga jalb etib kelmoqda. Qadimgi va hozirda badiiy asarlarda uchraydigan maqollarni yoritib berishga harakat qilamiz.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maqol - bu hayot haqidagi umumiy haqiqatlar, maslahatlar yoki hikmatlarni bildiradigan qisqa ibora yoki bayonot. Ushbu iboralar ko'pincha metaforik yoki majoziy ma'noga ega va ular odatda avloddan-avlodga o'tadi. Maqollar dunyoning ko'plab madaniyatlarida uchraydi va jamiyatda saboq va qadriyatlarni etkazish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ular juft, idioma, o'xshatish kabi turli shakllarda bo'lishi mumkin. Xalq og'zaki ijodi ko'pincha ixcham va esda qolarli bo'lib, bilim va tajriba almashishda samarali omil saifatida xizmat qiladi.

Nazarimizni maqollarning asarlarda uchrashiga qaratsak, juda ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin. Eng avvalo, maqollar qaysi asarlarda va qaysi asrlardan boshlab kirib kelganiga ahamiyat bersak, hali yozuvlar shakllanmagan, insonlar qabila bo'lib yashayotgan davrga borib taqaladi. Bu haqida tilshunos O. Madayev shunday deydi: "Xalq og'zaki ijodida otabobolarimizning aytmoqchi bo'lgan pand-nasihatlari, el e'zozlagan odam bo'lishning talab-qoidalari, Alp Erto'nga, To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirlklari, xalqimizning urf-odatlari, milliy fazilatlarimiz haqida san'at darajasiga ko'tarilgan s"z tizimlaridan iborat maqol, qo'shiq, ertak, doston, bolalarga bag'ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi". [1,7]

Demak, turkiy adabiyotning nodir namunasi hisoblangan „Devonu lug'otit turk“ (Turkiy so'zlar devoni). Bu asar 11 asrning ikkinchi yarmida Mahmud Qoshg'ariy tomonidan yozilgan bo'lib bunda ham 400 ga yaqin maqol va matallardan go'zal namunalar keltirilgan. Va bularning aksariyati hozirgi kunda ham ishlatalmoqda.

"**Qutadg'u-bilig**" (Saodatga yo'llovchi bilim) asari, Yusuf Xos Hojib tomonidan 1069 -70 yillarda yaratilgan bo'lib, bu asarda ham bir qancha hikmatli so'zlar keltirilgan. Bundan tashqari, XIX asrga yashab ijod etgan Muhammad Sharif Gulxaniyning "**Zarbulmasal**" asarida ham 300 ga yaqin maqol va matal, iboralar joy olgan. [6, 7]

Asarlarda maqollarning qo'llanilishi haqida "O'zbek xalq maqollari" da shunday jumlaga ko'zimiz tushadi, - " Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg'oz Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiyy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba'zan aynan, ba'zan o'zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz". [2]

Ertaklar va dostonlarda ham mardlik, jasurlik, mehnatkashlik va odamiylik haqida maqollardan keng foydalaniladi. Xalq maqollardan misollar " O'rxun -Enasoy" bitiglarida ham kelganini ko'rishimiz mumkin. Bunda, "Oriq va semiz buqani (birov) tezagidan bilsa, birov oriq va semiz buqani ajrata olmaydi", "Yupqa qalin bo'lsa, tor-mor qiladigan bahodir emish, ingichka yo'g'on bo'lsa, uzadigan bahodir emish" kabi maqolni eslatuvchi parchalarimi o'qiyimiz. [1,65] o'

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shuningdek, bir qancha asarlar va hikoyalarda kelgan maqollardan bir nechta namunalar keltiramiz. Bunga misol qilib birinchi navbatda, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" (Turkiy so'zlar devoni) asarida kelgan maqollarga e'tiborimizni qaratsak:

"**Ach ne jemas, toq ne temas**" – Och nimalar yemaydi, to'q nimalar demaydi,[7,108]

"**Kishi alasi ichtin, jilqi alasi tashtin**" - Odam olasi ichida, yilqiniki tashida, yoki yana bir muqobili "Kishi olasi ichida, Yilqi olasi tashida"

**"Erdam bashi til"**- Odobning boshi til

**"Ermag o'ga bulit jo'k bo'lur"**- Yalqovga bulut soyasi ham yuk bo'lur

**"Emiklik urag'ut ko'sakchi bolur"** emizikli xotin ishtahalik bo'lur. Shuning uchun unga istatagini beriladi deylidi. [7, 168]

**"Otug'uzguch birla o'churmas"**- O't alanga bilan o'chirilmas,

**"Tog' toqqa qavushmas, kishi kishiga qavushar"**- Tog' tog' bilan uchrashmas, odam odan bilan uchrashar,

Ammo, ayni paytda, **"Ot tesa, ag'iz kuymas"** - O't degan bilan og'iz kuymaydi **"Tulki o'z iniga ursa, uzuz o'lur"** - Tulki o'z iniga qarab hursa, qo'tir bo'ladi kabi maqollar bugungi kunda unutilgan. Ular o'rniiga **"Holva degan bilan og'iz chuchimas"**, **"Vataniga tosh otgan vatangado bo'ladi"** degan maqollar paydo bo'lgan. [1,67]

Ushbu asarda keltirilgan misollarning tagida olam-olam ma'nno yotadi. Ular bevosita xalq hayoti, turmush tarzi, madaniyatini hikoya qiladi. Ommabop va xalqchil tarzda yozilganligi sababli, kitobxon qalbiga tez etib boradi.

Xalqimiz tomonidan xalq maqollari mazmun jihatidan chuqur ma'noga egadir. Bundan tashqari, ular badiiy jihatdan ham juda mukammaldir[9]

**"Qutadg'u- bilig"**( soadatga eltuvchi bilim) asarida kelgan bir qancha hikmatli so'zlar va maqollar bilan tanishib o'tamiz. Bu asarning maqsadi asosan bilimga qaratilgan. Albatta baxtsaodatga erishishda bilim asosiy vosita hisoblangan. "Mazkur kitob shoiming o'zi aytganiday.

**Boshdan oxirgacha donolar so'zi,**

**Go'yoki tizilgan marjonning o'zi".** [3,5]

Ushbu asarda "ovuchg'a so'zi"- otalar so'zi, maqol, hikmatli so'z o'mida ishlataligan. Ovichg'a-ovuchg'a bu - qari, keksa, chol. katta yoshli kishi deb atalgan. Demak bundan kelib chiqadiku maqollar asosan qarilar, keksalar so'zi deb qo'llanilgan. [3,187]

**"Ta'magir — dunyo molining quli"** - yozuvchi bu maqolni shunday sharhlaydi: "Ko'zi to'q, samimi, tama dardi yo'q kishilar kotiblik uchun yarashadi. Chunki ko'zi to'qlar ta'ma dardidan xalos kishilardir. Ta'madan xalos bo'lgan kishilar esa ko'zini to'q tutadi, birovlar molidan umid tutmaydi. Uning shu nochor ahvoliga qarab turib ehson qilib turmoq kerak. Ta'magir, qaysi martabada turishidan qat'iy nazar, quldir. Kotib suq va ta'magir bo'lsa, ishini buzadi. O'z niyat maqsadini ochib berolmaydi. Kumush va oltinga, ya'ni mol mulk hamda boylikka mahliyo bo'lib, xat egasining boshiga kulfat va balolar yog'diradi. [3,89]

«**Qutadg'u bilig**» asaridagi maqollar xalq og'zaki ijodi maqollaridan shakl jihatdan farqlansada, ammo ularni muxtasar, ya'ni hech bir o'zgarishsiz holda qo'llash mumkin. Masalan:

**"Bilimsiz kishida kasallik bo'lar,**

**Kasal emlanmasa yashamas, o'lar!"** [3,15]

Bu pand, nasihatda bilim haqida aytilgan bo'lib, ya'ni **"Bilimdonga balo yo'q"** ma'nosini beradi. Bilim egasi o'z tilaklarini topadi, orzu-maqsadlariga erishadi. Aql-idrok egalarining nafi har doim ko'pchilikka tegib turadi. Bilim egalarini esa elda doim aziz bo'ladi deya ta'riflanadi.

**"Kishilar ezmasi yovuzdan yomon,**

**Ardoqli kishilar kamgap har qachon"**

Asarda bu maqolni shunday ta'riflaydi: "Ko'p so'zlash - donolik belgisi emas. U ezmalik alomati, til so'z uchun, yurak, ko'ngil esa shu so'zdan lazzatlanish uchun berilgan. Shu tufayli, to'g'ri, rost so'zni so'zlash uchun tilni tebratmoq, ya'ni harakatlantirmoq kerak. Egri, yaroqsiz so'zami tashqariga chiqargandan ko'ra tilning harakatsiz qolgani ma'qul" [3,39]

**"Tilingni avayla- omondir boshing"**

**"Qutadg'u-bilig"** asarida kelgan ushbu maqolga e'tiborimizni qaratsak: Uquv va bilimning tilmochi, taijimoni tildir. Kishiga ro'shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Hurmat-izzatni ham, obro'-e'tiborni ham kishi til orqali topadi. Agar tilga e'tibor bermasa, uni noo'rin qo'llasa, odam boshining yorilishi hech gap emas"- deya ta'rif beriladi. [3,16]

**"Zarbulmasal"** asarida kelgan bir qancha maqollardan misollar keltiramiz. Bu asar syujetidagi voqealar xalq ertaklariga monand yozilgan. Ayrim maqollardan misollar keltiramiz. Asar qahramoni Boyo'g'lining Kunushbonu ismli quyosh yanglig' go'zal qizi bor edi. Alqissa bu qizni, ko'zi suzulib, fe'li buzulib, ters so'zlay boshladi. Buni fahmlagan onasi qiziga qarata shunday dedi:

**«Oshuqqan qiz erga borsa, yorgimas", va "Teshik to'ichoq erda qolmas".** Shunda qizi ham

## TILSHUNOSLIK

onasiga qaratib: "Ey ona, siz bizga, sabr-gahammul sari yo'l ko'satursiz, mani olur yigitga ham otasi ayturki, " **Fo'lod pichoq qinsiz qolmas**", "**Bosh eson bo'lsa to'ppi topilur**", deya ushbu maqollar bilan javob qaytaradi . [6,10]

Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari "masallar yig'indisi" ma'nosini anglatadi. "Masal" bu o'tmishdagi nomi bo'lsa hozirda esa bu "maqol" deya ishlataladi. Bunda hikoyalar, maqollar, matallar pand-nasihat ma'nosida kelgan bo'lib, asar go'yasini yoritish uchun qo'llanilgan.

Gulxaniy "Zarbulmasal" da ijodiy foydalangan ko'pgina maqol, matal, masal, hikmatli so'zlar ham xalqimizning jonli tilida va yozma adabiyotda qo'llaniladi. Bu maqollarda kishilarning mehnatsevarlik, har bir masalga aql-idrok bilan yondashish to'g'rilik, sofдillik, sermazmun, sabotlilik kabi ajoyib fazilatlar ulug'lanadi.

Xalq og'zaki ijodidagi maqollar janni yillar davomida son va mazmun jihatidan boyish xususiyatiga ega. Shuningdek, ular zamon o'tishi bilan iste'moldan chiqishi va yangi-yangi namunalari paydo bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda esa turkiy so'zlar o'mini hozirgi o'zbek tiliga moslashtirilganiga guvoh bo'lamic. Ushbu asarda ham ba'zi maqollarning ba'zan aynan, ba'zan o'zgan holatini jadval asosida tahlil qilamiz.

Oshuqqon qiz erga borsa, yorgimas	Shoshgan qiz erga yolchimas
Teshuk to'ichoq yerda kolmas	Teshik munchoq erda qolmas, Yerda qolsa, kimlar olmas
Fo'lod pichoq qinsiz qolmas	Tirik ilon insiz qolmas, Po'lat pichoq -qinsiz
Bosh eson bo'lsa, to'ppi topilur	Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar
Bor maxtansa topilur, yo'q maqtansa, chopilur	Bor maqtansa, yarashar, Yo'q maqtansa, adashar
Uyot o'lumdin qattiq	Uyat -o'lindan qattiq
Yaxshi nafas-yarim mol	Yaxshi niyat - yarim davlat
Erman yag'ochini egilgani-singani, Er yigitni uyolgani - o'lgani	Eman daraxtining egilgani — singani, Er yigitning uyalgani -o'lgani
Xotun olmoqqa (qunt) kerak, Kunda dahsar et kerak	Xotin olmoqqa cho't kerak, Botmon-dahsar et kerak.
Ko'r tutganini va kar eshitganini qo'ymas	Kar eshitganini qo'ymas, K o'r -tutganini.
Oyog' yugurigi oshqa, Og'iz yugurugi boshqa	Til yugurigi- boshga, Oyoq yugurigi -oshga.
Oyni etak bilan yoshurub bo'lmas	Oyni etak bilan yopib bo'lmas
Halvo degan birla og'iz chuchumas	Halvo degan bilan og'iz chuchimas.
Sichqon iniga sig'mas, dumiga g'albir bog'lar	Sichqon sigmas iniga, G 'alvir bog'lar dumiga.

Maqollar so'z san'ati mahsuli sifatida o'z ma'nosida, ko'chma ma'noda va har ikkala ma'noda qo'llanishi mumkin. Shuning uchun ularda badiiy-tasviriy vositalarning xilma-xil shakllariga duch kelamiz. Ammo maqollarda o'xshatishning kam ishlatalishini, uning bu jam uchun xarakterli emasligini ham ko'ramiz. [2,6]

Ma'lum bo'ladiki, maqollar asarlardagi obrazlarning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Ma'naviy ozuqaga ehtiyoj moddiy ozuqadan muhimroq ekanini isbotlaydi. Endi boshqa bir asarlarga murojaat qilaylik: hikoya va romanlar ham maqollardan foydalanilganiga guvoh bo'lamic. Misol uchun, Abdulla Qodiriyning bir qancha hikoya va romanlarida ham bir nechta maqollardan namunalar keltirilgan.

"Yov qochsa botir ko'payar" - „**O'tkan kunlar**“

“Bilgan topib so'zlar, bilmagan qopib” — „**O'tkan kunlar**“ (Yusufbek Xoji tomonidan)

“Qush tilini qush biladi” — “**Mehrobdan chayon**”

“Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimas”- “**Mehrobdan chayon**”

„Sanamay sakkiz dema”-, „**Kecha va kunduz**“ (Zebi )[6]

**"Ikki eshik orasi"** asari muallifi O'tkir Hoshimov o'z hikoyalarida talaygina maqollardan foydalanadi. Bu esa shaklan qisqa bo'sada ammo vogelikni keng ifodalashda xizmat qiladi. Misollar:

- “Jon omon bo'lsa, mol topiladi”,
- “Suymaganga suykalma”,
- “Oyning o'n beshi yorug, o'n beshi qorong'u”,
- “Shirin yolg'ondan achchiq haqiqat yaxshi”,
- “Yaxshi kelsa kut, yomon kelsa yut”,
- “Ot o'mini toy bosar”,
- “Sabrning tagi sariq oltin”,
- “Mol egasiga o'xshamasa, harom o'ladi”,
- “Bo'sh qop tik turmas”,
- “ot aylanib qozig'ini topadi” kabi maqollar esa asar ta'sirchanligini oshirgan.[8]

### XULOSA

Xulosa o'mida shuni aytishimiz mumkinki, xalq maqollarida qaysi mavzu, qaysi soha tilga olinmasin, barchasi o'z muammosini atroficha yoritib beradi. Biz yuqorida keltirgan misollardan juda ko'plab namunalar topishimiz mumkin. Badiiy asarlar, doston, hikoya, ertaklarda bu kabi maqollar sababli yozuvchi ba'zan o'z asl holicha, ba'zan esa butunlay o'zgartirib, ijobjiy va salbiy tomonlarining ta'sirchanligini oshiradi. Shunday qilib, xalq og'zaki ijodi asarlardagi qahramonlar haqida tushunchamizni shakkantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu asarlarda kelgan maqollar, aforizmlar, xalqning dunyoqarashini ifodalab beradi. Adabiyotda yozuvchi maqollar, matallar, o'xshatishlar, metaforalar va boshqa badiiy vositalardan mohirona foydalanishi asarning o'ziga xos qiymati yanada oshiradi.

### REFERENCES

1. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi //«Mumtoz so'z», 2010.
2. Mirzayev T. Musoqulov A. Sarimsogov B. O'zbek xalq maqollari. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korapaniyasi Bosh tahririyati, 2005.
3. Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u-bilig" Cho'lpox nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi. Toshkent- 2007.
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/mahmud-koshg-aryy-maqollaridan>
5. [https://uz.telegram-store.com/catalog/channels/ona\\_tilim\\_millat\\_ruh/90365](https://uz.telegram-store.com/catalog/channels/ona_tilim_millat_ruh/90365)
6. Gulxaniy, Zarbulmasal. (Nashrga tayyorlovchi F. Is'hoqov.) T., Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.
7. Maxmud Kashigarskiy "Divean-lug'at-am-murrik" Toshkent. 1960
8. Shodiyabonu, N. (2023). "IKKI ESHIK ORASI" ASARIDA IBORA, HIKMATLI SOZ VA MAQOLLARNING ORNI. " GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
9. Ikromova, Lola. "MAQOL VA MATAALLARNING QIYOSIY CHOG'ISHTIRMA TAHЛИLI (FRANSUZ VA O'ZBEK MAQOL VA MATAALLARI MISOLIDA)." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 45.45 (2024).
10. Ikromova, Lola. "Tilshunoslikda freym tushunchasining ifodalanishiga doir ilmiy-nazariy qarashlar." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 3.3 (2021).
11. Boltayevna, Ikromova Lola, N. Z. Nabiyevna, and Muhabbat Ixtiyorovna. "The similarities and differences of proverbs with other genres." International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24.06 (2020).
12. Nojiyeva, G. "TERMINOLOGIYA VA TERMINLARNING MILLIY-MADANIY TADQIQI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1 (1)." (2020).
13. Nasimova, Fotima. "TERMIN VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 42.42 (2023).
14. Khamidova, M. K. (2020). Artistic application of depoethonyms in french and uzbek poetry. Scientific reports of Bukhara state university, 4(3), 210-213
15. Jorayeva, M., & Hayrullayeva, U. (2023). THE IMPORTANCE OF THE WRITTEN PRESS IN OUR SOCIAL LIFE. Modern Science and Research, 2(12), 1081-1084.
16. Bobokalonov, Odilshoh. "Les phytophraséologismes ou phytophrasèmes." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 31.31 (2023).